

Muzaffar BOTIROV,
 Guliston davlat universiteti, katta o'qituvchi
 E-mail: muzaffarbotirov4.04@gmail.com
 Tel: (90) 610 70 80

GulDPI, f.f.d. (PhD) A.Asatulloev taqrizi asosida

HUQUQIY REALLIKNING FALSAFIY MOHIYATI

Аннотация

Mazkur maqolada huquqiy reallik tushunchasining falsafiy mazmun-mohiyati tadqiq qilingan. Shuningdek, huquqiy reallikni shakllantirishning gnoseologik asoslariga murojaat qilish, uning ma'nosini falsafiy bilimlar kontekstida ochib berish, inson aqli va hissiyotlarini ezgu maqsadlarga yo'naltirish, jamiyatda ijtimoiy adolatni qaror toptirishda ustuvor o'rinni egallashi ilmiy-amaliy nuqtai-nazardan asoslangan.

Kalit so'zlar: Huquq, huquqiy reallik, huquq falsafasi, huquqiy bilish, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, falsafiy-huquqiy yondashuv.

ФИЛОСОФСКАЯ СУЩНОСТЬ ПРАВОВОЙ РЕАЛЬНОСТИ

Аннотация

В данной статье рассматривается философское содержание понятия правовой реальности. Также обращение к гносеологическим основам формирования правовой реальности, раскрытие ее смысла в контексте философского знания, направление человеческого разума и эмоций на благородные цели, занятие приоритетного места в определении социальной справедливости в обществе основано на научно-практической точке зрения.

Ключевые слова: Право, правовая реальность, философия права, юри-дическое знание, правосознание, правовая культура, философско-правовой подход.

PHILOSOPHICAL ESSENCE OF LEGAL REALITY

Annotation

This article explores the philosophical content of the concept of legal reality. Also, the appeal to the epistemological foundations of the formation of legal reality, the disclosure of its meaning in the context of philosophical knowledge, the aspiration of the human mind and emotions to noble goals, which occupies a priority place in determining social justice in society, is based on a scientific and practical point of view.

Key words: Law, legal reality, philosophy of law, legal knowledge, legal awareness, legal culture, philosophical and legal approach.

Kirish. Biz huquqiy, dunyoviy, demokratik va ijtimoiy davlat bo'lmish Yangi O'zbekistonni barpo etish siyosatini qat'iy davom ettirmoqdamiz. Mamlakatimiz "Inson qadri va manfaatlar uchun" degan ezgu g'oya asosida demokratiya va adolat tamoyillarini mustahkamlashga qaratilgan tub islohotlar yo'lidan dadil ilgari bormoqda [1].

Xalqaro huquqni xalqaro deklaratsiyalar va mavjud normalar va qadriyatlarining yaxlitligini tashkil etuvchi boshqa huquqiy hujjatlarni ratifikatsiya qilinishi suveren davlatlarning huquqiy normalari va huquqiy madaniyatining real hukmronligi negiziga aylandi.

So'nggi o'n yilliklarda mamlaktimizda huquqiy sohada ham sezilarli o'zgarishlar ro'y berdi, bu O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida (1992) mamlakatning asosiy qonuni sifatida huquqiy davlat qurish, insonparvar jamiyatni rivojlantirishga yo'naltirilgan huquqiy me'yorlarni mavjudligi bilan xarakterlanadi. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, "Asosiy masala - qonunlarning mazmun-mohiyatini xalqimizga va mas'ul ijrochilarga o'z vaqtida yetkazish, ularning ijrosini to'g'ri tashkil etish hamda qonun talablariga qat'iy amal qilishni ta'minlashdan iboratdir"[2].

Zamonaviy jamiyat rivojlanishi huquqiy reallikda aks etishi shubhasiz ayni haqiqat hisoblanadi. Shu boisdan ham hozirgi davrda huquqiy sohaning dinamikasi inson huquq va erkinliklarini ta'minlashning tobora kengayib borish jarayonini rasman tan olinishi va shu asosda ham xalqaro, ham ichki miqyosdagi huquqiy reallikni insonparvarlashtirishga qaratilganligi bilan alohida ajralib turadi. Zamonaviy insoniyat hayotining jadal rivojlanish sur'atlari va globallashuv jarayoni texnik, texnologik, ilmiy, siyosiy, iqtisodiy va boshqa sohalaridagi tub o'zgarishlar huquqiy sohada muayyan muammolarni ham keltirib chiqaradi. "Huquq ilmi falsafaning bir qismidir"[3].

Yuristlar va siyosatchilarni global huquqiy reallikni ta'minlash jarayonlarini tan olishga majbur qiladigan eng muhim muammolardan biri xalqaro huquqiy tartib haqida hukmron bo'lgan g'oyalarning o'zgarishi bilan chambarchas bog'liq. Shuning uchun ham G. Xart allaqachon (1961) 2-yilda «xalqaro huquqning real tabiati va suveren davlat maqomi har qanday huquqiy cheklovlar majburiyatlar bilan mos kelmaydi"[4], deb ta'kidlaydi. Bu kabi murakkab holatlar globallashuv jarayonining milliy davlat huquqiy tizimlarini universallashtirish va standartlashtirishga olib kelganligi bilan bog'liq, chunki «iqtisodiy va siyosiy globallashuv milliy davlatlar hokimiyatining parchalanishiga olib keladi: ... bozorlar, tovarlar, kapital va xizmatlar davlatlardan tashqarida va ularning huquqiy tizimlaridan tashqarida tobora ko'proq shakllanmoqda... Jahon bozorida milliy qonunchilik uchun joy tobora kamayib bormoqda"[5].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bizning tadqiqotimiz uchun muhim adabiyotlar bloki «huquqiy reallik» tushunchasining rivojlanishi bilan bog'liq. Va bu yerda onto-gnoseologik tahlil huquqiy reallikning falsafiy va huquqiy tushunchalari bilan chegaralanib, uning inson hayotining turli sohalaridagi rolini ochib beradi. Shunday qilib, chet el huquqshunoslari va huquq falsafasi vakillari I.Bentam va J.Ostinlarning asarlarida huquqiy reallik siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy sohalarida namoyon bo'ladigan o'ziga xos belgilari ochib beriladi.

R.Ering qarashlarida esa huquqiy reallikning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini birlashtirishga harakat qilinganligi kuzatishimiz mumkin. Biroq, huquqiy reallik hodisasini yoritishda qarama-qarshi falsafiy va huquqiy yondashuvlar ham ilgari surilganligini guvohi bo'lamiz. Masalan, G. Kelsen huquqiy reallik hodisasining tavsifini iqtisodiy, siyosiy, sotsiologik, tarixiy, axloqiy va boshqa xususiyatlar orqali ochib berishga intildi va u ijtimoiy hayotdan mustaqil deb hisoblagan huquqiy reallikni ta'minlovchi normalar tizimini yaxlit holda ochib beradi. Shaxsning onto-gnoseologik asoslari odamlarning amaliy munosabatlarida mujassam bo'lib, ular bilan bog'liq ravishda siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy o'zgarishlarning ta'sirini o'rganuvchi

mutafakkirlarning asarlari: A. Smit, D. Rikardo va Jon Sent, Mill, O. Comte, N. Rulan. G.Xart, R.Nozik, E.Santoro, P.Burde, J.Habermas, G.B.Gutnerlar ijtimoiy harakat manbai va undan kelib chiqadigan oqibatlar sifatidagi "huquqiy reallik" tushunchasini ilmiy-falsafiy ta'rifini ishlab chiqishga intiladilar[6].

MDH doirasida esa G.F.Sherstenevich, A.F.Kistyakovskiy, S.A. Kotlyarevskiy, P. I. Novgorodsev, P. A. Sorokin, N. S. Tagansev, N.N.Alek-seev, I. A. Ilin, B. N. Chicherinlar huquqiy reallikning axloqiy, diniy va madaniy asoslarini muvofiqlashtirib, shaxsning ma'naviy va intellektual hayotiga ishora qilib, bu tushunchani falsafiy mazmun-mohiyatiga aniqlik kiritishga harakat qiladilar. Bu an'ana keyinchalik V. S. Nersesyans, S. S. Alek-seev, Yu. V. Tixonravov, S. I. Maksimov, M. I. Pantikina, I. P. Malinova va asarlarida berilgan. S. I. Glushkova, A. V. Polyakova, V. N. Rudenko, V. O. Lobovikova, A. B. Didikina, V. V. Oglezneva va boshqalar tomonidan yanada rivojlantiriladi[7].

Biz uchun ahamiyatli bo'lgan yana bir tadqiqot bloki huquqiy reallikni inson borlig'ining muhim xususiyatlari nuqtai nazaridan ko'rib chiqish bilan bog'liq bo'lib, bizni faqat huquqiy munosabatlar doirasidan tashqariga, butun inson mavjudligini tushunishga olib borishini bilishimiz mumkin bo'ladi. Inson uchun qonun yaratilishini tan olgan holda, biz bir vaqtning o'zida nafaqat sof huquqiy xususiyatlarni, balki uning bu dunyoda mavjudligining chuqur asoslarini ham huquqiy reallik orqali belgilaymiz. Bunday yondashuv huquqiy reallik hodisasini shaxs bilan, uning mohiyati bilan chambarchas bog'liq degan fikrdan kelib chiqadi. Bunday yondashuv I. Kant va G.V.F.Gegel asarlarida yaqqol ifodalanadi. Huquqiy reallikning Gegel konsepsiyasida ontognoseologik asoslari o'ziga xos falsafiy tushunchalar orqali ifodalangan: ruh, aql va sevish qobiliyati, bu inson mavjudligining ijtimoiy-madaniy omillarining murakkabligi tufayli yuzaga keladi. Ayni shunday mazmundagi fikr-mulohazalar V. Solovyov, B. N. Chicherin, I. A. Ilin, A. F. Losev, V. S. Nersesyans, S. I. Maksimov va boshqalar tomonidan ilgari surilgan[8].

Huquqiy reallikni ilmiy-falsafiy asoslari Platon, Aristotel, Avgustin Avreliy, Foma Akvinskiy, M. Padua, V. Okkam, M. Lyuter, E. Rotterdam, J. Kalvin, T. Yana, N.Makiavelli, G.Gegel, E.Gusserl, M.Xaydegger, O.Shpengler va boshqalar tomonidan o'rganilgan. Jumladan, inson borlig'ining hozirgi davrda huquqiy reallik sifatidagi xususiyatlari - F.M Volter, J.-J. Russo, V. Gumboldt, C. Monteske, I. Kant, G. Gegel, M. Xaydegger, M. Fuko va boshqalar tomonidan ochib berilgan[9].

Tadqiqot metodologiyasi. Huquqiy reallik muammosini falsafiy va ilmiy bilimlarni o'rganish predmeti sifatida M.Xaydegger, M.Fuko, P.Riko, J.Deleuz, N.S.Avtonomova, L.L.Fuller, P.A.Sorokin, A. B. Didikina, I. N. Gryazina va boshqalar tomonidan o'rganilgan ilmiy izlanishlar ham mavjud. Bizning nazrimizda huquqiy reallik masalalarini chuqur o'rganish metodologiyasining zamonaviy fan yutuqlari asosida tubdan o'zgarishini e'tirof etgan holda, ushbu metodologiyalarning xilma-xilligini tasdiqlovchi empirik materiallar taqdim etish muhim ahamiyatga ega. Huquqiy reallikning o'zi shakllanishiga ontognoseologik asoslarning ta'siri tahlili M.Xaydegger, X.Arendt, V.Mayxofer, A.Xonnet, P.Rikyor asarlarida mavjud[10].

Tahlil va natijalar. Huquqiy davlat sharoitida huquqiy reallikning davlat tuzilishidagi ahamiyati, referendum va xalq qonun ijodkorligi tashabbusidan tortib, yuqori hokimiyat organlarining qonun ijodkorligi faoliyatigacha hamda siyosiy qarorlarini qabul qilish va qonun ijodkorligidagi ishtiroki darajasi tufayli uning potensial imkoniyatlari va funksiyalari doirasi yanada kengayib bormoqda. Bu odamlarning kundalik hayotida ham, umuman davlat hayotida ham huquqiy tamoyillarni mustahkamlash zaruriyatini yuzaga keltiradi. Huquqiy reallik odatda inson huquq va erkinliklarini amalga oshirish uchun munosib shart-sharoit yaratish, balki ularning ustuvorligini ta'minlashda yaqqol namoyon bo'ladi. "Huquq, bu – bir shaxs o'zboshimchaligini boshqa bir shaxs o'zboshimchaligi bilan umumiy erkinlik qonuni nuqtai nazaridan taqqoslash mumkin bo'lgan shart-sharoitlar yig'indisi (majmuasi)dir"[11].

Huquqiy reallikning kelib chiqishi, shakllanish mexanizmi va shartlari, uning inson huquqlari bilan bog'liqligiga oid savollar sof huquqiy tahlildan tashqari, falsafiy mulohaza yuritishni taqozo etadi. Rivojlanish mantig'i zamonaviy tipdagi tamaddunda inson huquqlari ustuvorligini tan olishga olib keladigan huquqiy reallik hodisasining paydo bo'lishini insonning chuqur ontologik asoslariga murojaat qilish orqali uni yanada chuquroq anglash mumkin. Buni biz insonni bu hayotda mavjud bo'lish huquqi, inson huquqini ontologik mohiyati va inson borlig'ini himoya qilishda qonunning o'rni, bu hayotda har bir insonni o'z erkinligini anglash darajasi va undan kelib chiqadigan javobgarlik to'g'risidagi qarashlar inson mavjudligini ta'minlashdagi huquqiy reallik va ideallik hodisasi hisoblanadi. U.Tojixonov va A.Saidovlar huquqning eng muhim sakkizta - ijtimoiylik, normativlik, majburiylik, rasmiylik, muayyan jarayonlilik, shaxsiylashtirilmaganlik, institutsiyaviylik, ob'ektivlik kabi belgilari borligini qayd etadilar[12].

Huquqiy reallikni ontologik nuqtai nazardan ko'rib chiqish, asosan, inson faoliyatining o'ziga xos xususiyatlaridan va uning ma'lum bir sohada qo'ygan maqsadlaridan kelib chiqqan holda, shaxsni talqin qilishda o'rnatilgan huquqiy-falsafiy yondashuvlarning xilma-xilligi tufayli huquqiy reallik tushunchasini ilmiy-nazariy jihatdan o'rganish ham dolzarb hisoblanadi, lekin bu muammo doirasida falsafiy yondashuvlarning yetarli darajada shakllanmaganligi ayni shu mavzu doirasida ilmiy izlanishlar olib borish zaruriyatini yuzaga keltirdi. Shuningdek, huquqiy reallikni shakllan-tirishning gnoseologik asoslariga murojaat qilish, uning ma'nosini falsafiy bilimlar kontekstida ochib berish, inson aqli va hissiyotlarini ezgu maqsadlarga yo'naltirish, jamiyatda ijtimoiy adolatni qaror toptirishda ustuvor o'rinni egallaydi. Agar inson borliqning bir qismi bo'lsa, uning ontologik maqomi inson hayotining barcha sohalariga, shu jumladan huquqiy reallikni ta'minlovchi sohalar faoliyatiga ham ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi.

Huquqiy reallik nafaqat inson mavjudligining barcha xususiyatlarini o'z ichiga olgan ijtimoiy tartibga soluvchi funksiyani bajaradi balki muayyan milliy huquqiy tizimlar, shuningdek insonda qonunni idrok etish va unga rioya qilish imkonini beradigan holatlarni ham o'zida ifoda etadi.

Huquqiy reallikning jamiyat hayotining barcha sohalariga singib ketganligi sababli, uning shakllanishi va rivojlanishining gnoseologik jihati insonni erkinlik o'lchovi bilan munosabatlaridagi ehtiyoj va majburiyatlarni, shuningdek, uning huquqiy adolat bilan munosabatidagi haqiqatni aks ettiradi. Tadqiqotning ontologik va gnoseologik jihatlari o'rtasidagi munosabat insonning o'z huquqiy borlig'ida real va yaxlit holda namoyon bo'lishi bilan bog'liq imkoniyatlar va chegaralarni ochib beradi. Huquqiy reallik inson mavjudligini ta'minlovchi yo'llaridan biri bo'lib, insonning yaxlit borlig'ini tushunish orqali, mohiyat va hodisa, mazmun va shakl, butun va qism va boshqa shu kabi falsafiy kategoriyalar orqali idrok etiladigan darajada yaqqol namoyon bo'ladi.

Xulosa va takliflar. Huquqiy reallik tushunchasini falsafiy mazmun-mohiyatini ko'rib chiqish bilan bog'liq tadqiqot metodologiyalarining xilma-xilligi inson faoliyatining uning shakllanishi va rivojlanishi jarayonlariga ta'sir qiluvchi sohalarining xilma-xilligi bilan bog'liq. Onto-epistemologik yondashuv falsafa doirasidagi asosiy va nazariy yondashuv sifatida mavjud metodologiyalarni yagona asosda umumlashtirish imkonini beradi. Shuning uchun huquqiy reallik tushunchasini falsafiy nuqtai-nazardan o'rganishda jamiyatda mavjud huquqiy, iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy-madaniy sohalarini tizimli tartiblangan yaxlitlikda ifodalovchi, ularning munosabatlari qonuniyatlarini ochib beruvchi tizimli-strukturaviy usullardan samarali foydalanish dolzarb ahamiyatga ega. Huquqiy reallikni o'rganishga ontologik yondashuvning tarkibiy qismi sifatida dialektik usul nafaqat sub'ektning holatini tashkil etuvchi omillarining o'zaro bog'liqligini aniqlashga, balki inson mavjudligining chuqur asoslari bilan bog'liq bo'lgan ushbu o'zaro bog'liqliklarning sabablarini bilish imkonini beradi.

Ushbu tadqiqot metodologiyasida muhim tarkibiy qism madaniy-tarixiy usul bo'lib, u dialektik usulning tarixiylik prinsipiga qo'shimcha ravishda ijtimoiy-madaniy qadriyatlar va huquqiy reallikni anglashdagi eng muhim ma'nolarning makonini taqdim etishga keng imkon beradi. Chunki huquqiy reallikning shakllanishining tarixiy davrlari; bu makon ijtimoiy institutlarda amalga oshiriladi va insonning ma'naviy kamoloti va huquqning rivojlanishiga ham ta'sir qiladi.

Bunda huquqiy reallik hodisasining tegishli talablari bilan bir qatorda ulardan tashqari davr, davlat, millatning madaniy-tarixiy taraqqiyot mazmunini ob'ektiv baholash kerak bo'ladi. Shu munosabat bilan ko'rib chiqilayotgan davrlarning madaniy-tarixiy mazmunidagi o'zgarishlar va huquqiy reallik uchun muhim institutlarni aniqlash maqsadida qiyosiy metodga murojaat qilamiz. U huquqiy reallikni rivojlanishining klassikgacha bo'lgan, klassik va noklassik bo'lmagan bosqichlarining o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish, huquq falsafasi fanini o'rganishga onto-gnoseologik va falsafiy-huquqiy yondashuvlarni tadbiq qilish orqali amalga oshadi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqi. 19.09.2023 yil.
2. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash –yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Kons-titutsiyasi qabul qilinganligining 24-yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi.//O'zbekiston Milliy axborot agentligining veb-sayti –<http://uza.uz>.
3. Hegel.Sochineniya.T.VIII.- Moskva: Gosmetizdat, 1958. – S.362.
4. Xart G.L.A. Pravo, svoboda i moral / Per. s angl. S. Moiseeva. — M.: izd. Instituta Gaydara, 2020. — 136 s.
5. Nicola L. A Life of H.L.A. Hart: The Nightmare and the Noble Dream. — Oxford University Press, 2004. 422 p
6. Slobodnyuk S.L. Pravovaya realnost: istoricheskiy analiz. - Sankt-Peterburg : Izd-vo Politexnicheskogo un-ta, 2011. - 135 s.
7. Goncharov Ye.V. Pravovaya realnost : analiz vzaimodeystviya sub'ekta i ob'ekta : dissertatsiya kandidata filosofskix nauk. - Tambov, 2008.-146 s.
8. Maksimov S.I. Pravovaya realnost: opyt filosofskogo osmysleniya. - Xarkov : Pravo, 2002. - 327 s.
9. Kovalenko K.E. Pravovaya realnost i prinsip razumnosti : ponyatie i xarakter sootnosheniya [Tekst] : monografiya / K. Ye. Kovalenko ; M-vo obrazovaniya i nauki RF, Altayskiy gos. un-t. - Barnaul : Izd-vo Altayskogo gos. un-ta, 2013. - 171 s.
10. Kret O.V. Pravovaya realnost : ontologo-gnoseologicheskiy analiz : dissertatsiya ... kandidata filosofskix nauk. - Tambov, 2007. - 155 s.
11. Platon. Sochineniya v trex tomax.1.3. Chast 2- Moskva: Mysl; 1972.- 612 s.
12. Tojixonov U, Saidov A. Davlat va huquq nazariyasi.Ikki jildli. 1-jild. Davlat nazariyasi.- Toshkent: Adolat, 2001.- 97-100 b.